



BADIY ADABIYOTDA METAFORIK IFODALARNING QO'LLANILISHI

(SHOIRA ZULFIYANING "BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB.."
SHE'RI ASOSIDA)

Qobuljonova Robiya

*O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Robiyy79@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora tushunchasi, turlari, badiiy asarlarda metaforalarning ishlatalishi, uning asarda qanday vazifani bajarishi haqida o'rghanildi. Shoira Zulfiyaning ijodiga mansub she'rda ishlataligan metaforik ifodalar tahlil qilindi, boshqa adabiyotlarda qo'llanilgan metaforalar haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: metafora, badiiy adabiyot, obrazlilik, ta'sirchanlik, she'r, iste'dod, o'xshatish.

Badiiy adabiyotda metaforalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Sababi, ular nutqni o'quvchiga ta'sirchan, obrazli va aniq yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Metaforalarni asarda qo'llash orqali muallif oddiy so'zlar bilan aytib bo'lmaydigan chuqur g'oyalarni ham ifoda eta oladi. "Metafora-bu stilistik figura bo'lib, u tilning badiiy estetik imkoniyatlarini kengaytiradi va adabiy matnning obrazliligi va ekspressivligini oshiradi[1]".

Metafora ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash hisoblanib, u so'z ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda narsa o'z xususiyati, shakl, harakat, rang, hid, hajm va shu kabi biron belgisiga ko'ra boshqa shu xususiyatlarga ega bo'lgan narsaning nomini oladi[2]. Metafora hosil qilinganda predmetlar uchun umumiyligi bo'lgan belgi tushuncha saqlanib qoladi. Masalan, "suvning boshi" metaforasi inson tana a'zolariga nisbatan shakllangan. Bunda "bosh" so'zi -inson tanasining eng yuqori qismi- suvning



boshlanish nuqtasiga qiyoslanib ko‘chirilgan. "Achchiq gap[3]" metaforasi esa turli taassurotlar o‘xhashligiga ko‘ra tashkil topgan. "Achchiq" so‘zi yoqimsiz, og’ir, g’amli kabi ma‘nolarni berib, aytilgan gapning g’amliliga o‘xshatilib, tuzilgan.

Badiiy asarlarda metaforalar o‘quvchida kuchli hissiyot uyg‘otadi, bu esa ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, "Hope is the thing with feathers that perches in the soul, And sings the tune without the words, And never stops at all [4]"(umid bir patli jonzoddir, qalblarda in quradi va so‘zsiz kuylay oladi, hech qachon to‘xtamaydi) gapida "umid" qushga o‘xshatilmoqda, go‘yoki u so‘zsiz tasalli beradi va hech qachon butkul yo‘qolib ketmaydi. Bu orqali shoir umidning inson hayotidagi barqarorligi, quvvat beruvchi tabiatini va ichki quvvat manbai ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotiga nazar soladigan bo‘lsak, juda ko‘plab shoir va yozuvchilar o‘z asarlarida metaforalardan mohirona foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Shu sababdan ularning asarlarini o‘quvchi o‘qigan sari yana o‘qishni xohlaydi. Shunday shoiralardan biri sifatida Zulfiyaxonimni ham keltirish mumkin. Uning ko‘plab she’rlari, ayniqsa, "Bahor keldi , seni so‘roqlab.." she’ri ta’sirchanligi, obrazliligi bilan ko‘plab o‘quvchilarning qalbida qolgandir.

"Salqin saharlarda, bodom gulida

Binafsha labida, yerlarda bahor.."

Ushbu satrlarda ishlatilgan "binafsha labi" , "bodom guli" metaforalari ham yuqorida aytib o‘tilganidek she’rni yanada obrazli hamda jozibador qilishga xizmat qilmoqda. Tahlilga kelsak, "binafsha labi" metaforasi orqali shoira bahor faslining nafisligi ohangraboligini, "bodom guli" orqali esa go‘zallik , yangilanish, noziklikni ifodalamoqda. Bodom daraxtining gullashi bahor faslining ilk belgilaridan biri sifatida tilga olinmoqda. "...Har uyg’ongan kurtak hayot bergen kabi, Ko’zlaringga surtib o‘parding uni.." misralarida qo‘llanilgan "uyg’ongan kurtak" metaforasi kurtaklarnimg bahorda ochilishiga ishora qilmoqda. Bu timsol yangilanish, tiriklik kabi tushunchalarni ifodalaydi. "Qishning yoqasidan tutib



so‘radi seni, Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.." - bu misralarda qish ham xuddi tirikdek tasvirlanmoqda, go‘yoki bahor kelib shoir sevgilisi haqida qishni so‘roqqa tutadi. Bundan kelib chiqadiki, sovuq va qahraton (qish), hayot , iliqlik va sevgi (bahor/sevgili) tushunchalari orqali she’rning obrazliligi oshirilgan.

"Topmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldiyu, jarliklarga olib ketdi boshini , Farhod tog’laridan daraging izlab, Soylarga qulatdi tog’ning toshini" - bahorning yor sevgilisini topa olmay boshini jarliklarga olib ketishi, alamdan Farhod tog’laridan toshlarni qulatishi kabi misralardan shoira o’quvchining tasavvurida har bir manzarani chizib berish uchun metaforik ifodalardan mohirlik bilan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy qilib aytganda, ushbu she’rning har bir misrasida metaforik ifodalar qo‘llanganini, ular esa she‘rni yanada jozibador bo‘lishini ta’minlayotganini o‘quvchi bir o‘qishdayoq payqay oladi.

Metaforik ifodalardan nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki ingliz adabiyotida ham foydalanylani ko‘plab shoir ba yozuvchilarning asarlaridan ma’lumdir. Misol uchun, William Shekspirning" Shall I compare thee to a summer's day?

Thou art more lovely and more temperate:

Rough winds to shake the darling buds of May,

And summer's lease hath all too short a date[5]" kabi metaforalarni ishlatalib yozgan asari ham ko‘plab o‘quvchilarning qalbidan joy olgan. Bu gaplarda "compare thee to a summer’s day" - sevikli yorning go‘zalligini iliq va yorqin yoz kuniga taqqoslash, lekin yorni undan ham chiroyqliroq deb aytish ifodalangan. "Rough winds do shake the darling buds of May" - bahor gullarining nozikligi , ularning qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi ta’kidlangan. Bundan esa, o‘z navbatida, hayotning o‘tkinchligi va go‘zallikning vaqtinchaligi ifoda etilmoqda.

"Summer's lease hath all too short to a date" qismida yozning tez o‘tib ketishi vaqtinchalik ekani bildirilyapti, bu esa umrning shirin damlari doim ham uzoqqa cho‘zilmasligidan xabar beradi.



Xulosa qiladigan bo‘lsak, metafora — bu badiiy adabiyotning eng kuchli va obrazli ifoda vositalaridan biridir. U oddiy fikrni turli ma‘nolar bilan boyitadi, muallifga mavhum tuyg‘ular, chuqur hissiyotlar yoki falsafiy fikrlarni jonli, esda qolarli obrazlar orqali yetkazish imkonini beradi.

Metaforalar o‘quvchini faqat axborot bilan emas, balki tasavvur, his, anglash o‘ziga jalb qiladi. Uning yordami bilan muallif so‘z ortida butun bir olamni yashiradi, o‘quvchini o‘ylantiradi va ichki kechinmalarga sherik qiladi.

Metafora — badiiy tafakkurning estetik ko‘zgusi bo‘lib, u tilni poetik qiladi, adabiy asarga estetik, emotsional va g‘oyaviy chuqurlik olib kiradi. Shuning uchun u har qanday badiiy asarda mazmun, obraz, tuyg‘u va estetik go‘zallikni uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyatga ega.

“The greatest thing by far is to be a master of metaphor. It is the one thing that cannot be learned from others; and it is also a sign of genius, since a good metaphor implies an intuitive perception of the similarity in dissimilars.[6]”

"Eng buyuk fazilat — bu metafora ustasi bo‘lishdir. Buni boshqalardan o‘rganib bo‘lmaydi; bu iste’dod belgisi, chunki yaxshi metafora — bir-biriga o‘xshamaydigan narsalar orasidagi o‘xshashlikni sezish qobiliyatini bildiradi." Aristotelning fikricha, metaforani ishlatish -bu o‘ziga xos iste’dod belgisidir, metafora esa tafakkur va ijodning eng yuksak ko'rinishi hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Aldus Manutius, “Aristotelis Poetae Graeci veteris opera omnia”(Qadimiy yunon shoiri Aristotelning barcha asarlari). Venetsiya, 1508.
2. Irisqulov M.T., "Tilshunoslikka kirish". "Yoshlar matbuoti", Toshkent, 2009.
- 3.Irisqulov M.T., "Tilshunoslikka kirish". "Yoshlar matbuoti", Toshkent, 2009.



4. Emily Dickinson, " The Poems of Emily Dickinson". Harvard University Press, 1955.
5. William Shakespeare, " Shakespeare's Sonnets". "T.Thorpe", 1609.
6. Aristotel "Poetics" . Oxford University Press, 1909 (translated by Ingram Bywater).
7. Zulfiyaxonim "Bahor keldi seni so'roqlab". "Yangi asr avlodi", Toshkent, 2016.

‘